# TTPU vakillari FarPI da

Joriy yilning 20 fevral kuni Toshkent shahridagi Turin Politexnika universiteti vakillari Farg ‘ona Politexnika institutiga tashrif buyurib, viloyatdagi maktab bitiruvchilari bilan uchrashdi.

Bitiruvchilarga universitetda sifatli ta’lim olishi uchun yaratilgan sharoitlar, ta’lim yo‘nalishlari, universitetga kirish ballari, xalqaro qo‘shma dasturlar haqida ma’lumot berildi.










Shuningdek tashrif doirasida, FarPI talabalari bilan ham uchrashuv uyushtirilib, unda TTPU professori Guido Marchetto talabalarga magistratura bosqichidagi ta’lim yo‘nalishlari,

hamda talablar almashinuvi haqida batafsil ma’lumot berib o‘tdi.

Tadbir yakunida talabalar tomonidan berilgan barcha savollarga to‘liq javob berildi.